



UDK: 316.4

Olimjon AXMADJANOV,
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: akhmadzhanov71@inbox.ru

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti S.Abdullayeva taqrizi asosida

JAMIYATDA ELEKTRON MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNI RIVOJLANISH BORASIDA MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatda elektron madaniyat tushunchasining mazmuni, uning nazariy-metodologik asoslari hamda rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif elektron madaniyatni axborot almashinuvi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy kommunikatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy tizim sifatida izohlaydi. Maqolada elektron madaniyatning tarkibiy elementlari, uning axborot madaniyati bilan o'zaro aloqadorligi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari elektron madaniyat zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi ekanligini, uning doimiy yangilanuvchi va o'zgaruvchan tabiatga egaligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Elektron madaniyat, axborot madaniyati, jamiyat, kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tizim, axborot almashinuvi, virtual muhit, madaniy rivojlanish, sosiologik yondashuv.

THE CONCEPT OF ELECTRONIC CULTURE IN SOCIETY AND REFLECTIONS ON ITS DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes the content of the concept of electronic culture in society, its theoretical and methodological foundations, and the features of its development. The author considers electronic culture as a complex social system closely connected with the processes of information exchange, digital technologies, and social communication. The article thoroughly examines the structural elements of electronic culture, its interrelation with information culture, as well as its significance in the development of society. The research findings demonstrate that electronic culture is an integral part of modern society and is characterized by a constantly evolving and dynamic nature.

Key words: Electronic culture, information culture, society, communication, digital technologies, social system, information exchange, virtual environment, cultural development, sociological approach.

ПОНЯТИЕ ЭЛЕКТРОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ И РАЗМЫШЛЕНИЯ О ЕЁ РАЗВИТИИ

Аннотация

В данной статье проанализированы содержание понятия электронной культуры в обществе, её теоретико-методологические основы и особенности развития. Автор рассматривает электронную культуру как сложную социальную систему, тесно связанную с процессами обмена информацией, цифровыми технологиями и социальной коммуникацией. В статье подробно освещаются структурные элементы электронной культуры, её взаимосвязь с информационной культурой, а также её значение в развитии общества. Результаты исследования показывают, что электронная культура является неотъемлемой частью современного общества и обладает постоянно обновляющимся и динамичным характером.

Ключевые слова: Электронная культура, информационная культура, общество, коммуникация, цифровые технологии, социальная система, обмен информацией, виртуальная среда, культурное развитие, социологический подход.

Kirish. Jamiyatning barcha sohalarida ma'lumotlarning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy hayot, fan, sa'nat kabilar yirik sotsial elektron madaniyatlarning tarkibiy elementlari sanaladi. Chunki ijtimoiy elektron madaniyat murakkab ichki tuzilishga ega bo'lib, tartibli, yaxlit, uzviy aloqadorlikdagi axborot vositalari yordamidagi ma'lumot almashinuvi, shakllangan ijtimoiy elektron munosabatlar birligini xosil qiladi.

Elektron madaniyat (madaniyat arabcha madina "shahar" so'zidan) – har biri alohida element sifatida amal qilishi mumkin bo'lgan qismlardan tuzilgan, axborot, xabar ma'lumotlarning harakatlanish tezligini nazarda tutadi. Shu boisdan elektron madaniyat – bu bir-biri bilan uzviy munosabatda bo'lgan, o'zaro aloqador elementlarning bir butun raqamli yig'indisidir.

Elektron madaniyat (EM) – bu raqamli obyektlar va hodisalarni yaratish, "jonli" madaniyat obyektlarini, virtual makonlarni, axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan jarayonlar va hodisalarni simulyatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan inson faoliyati va uning natijalari. Elektron madaniyat hodisalari mavjud real obyektlarning o'xshashlarini ham, raqamli sanoatning o'ziga xos yangi texnologik mahsulotlarini ham o'z ichiga oladi.

Elektron madaniyatning mohiyatini tushunish uchun turli muammoli asoslar mavjud, jumladan, ontologik, axloqiy, aksiologik (turli qadriyatlarining o'zaro bog'liqligi), kognitiv (anglash, tushunib yetish) va boshqalar.

Axborot madaniyatining mohiyati xususida antik davrdan boshlab hozirgi kunga qadar ko'plab yondashuvlar ilgari surilgan bo'lib, elektron madaniyatga yondashuv borasidagi keng ko'lamli munozaralar XX asrning ikkinchi choragidan telegraf va telefon aloqasidan o'z tarixini boshlagan. Ayni vaqtda sohani, tor mazmunda, maqsadga erishish uchun samarali axborot bilimi va ko'nikmalarini amalga oshirish qobiliyati deb tushunish mumkin.

Axborot madaniyati shaxs ma'naviy madaniyatining axborot dunyosiga kirishi, madaniyatning umumiy yaxlitligi va uning tarbiy qismi sifatida anglashdir. U jamiyat taraqqiyoti bilan shakllanib boradigan ijtimoiy voqelikning ma'lumotlar maydonidir. Bu hol axborot madaniyatining taraqqiyotini fundamental serqirra hodisa sifatida, ilm-fan texnika va texnologiyalarning rivojiga doir hodisa sifatida baholash imkonini beradi. Mazkur fenomen xabar, ma'lumotni qabul qilish, saqlash va uzatishda yuz beradigan ijtimoiy faoliyatni nazarda tutib, tarixiy taraqqiyotda yangi elementlarni o'zida mujassam etgan. Shu ma'noda biz axborot madaniyatining bir qator jihatlarini vositasi sifatida sivilizatsiya doirasida guruhlashtirishga moyilmiz: audiovizual, mantiqiy, semiotik, texnologik, tarmoq madaniyatlari kabi[1].

Rossiyalik tadqiqotchi N.A.Tyoplaya axborot madaniyatini ilm-fan, axborot texnologiyalarining taraqqiyoti tufayli inson hayotining barcha sohalarida aloqa si sifatida madaniy qadriyatlashuvini ta'limning rivoji bilan bog'liq holda tahlil qilgan.

Biz ushbu ta'rifga qo'shilgan holda, axborot madaniyati insonlar tomonidan tashqi dunyoni idrok qilish, jarayonni, olamni bilishning ijtimoiy jihati sifatida odamlarning tashqi olamga munosabatini ifodalaydi degan fikrdamiz. Chunki axborot madaniyati inson tomonidan butun atrof-muhit, tashqi dunyo bilan uzluksiz aloqani his qilish vositasi sifatida anglashiladi[2].

Axborot madaniyati voqelikka yondashuv usuli nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy fanlarda o'zini yanada yaqqolroq namoyon etadi. Zotan, sotsiologiya mustaqil fan sifatida paydo bo'lgandan buyon olimlar jamiyatni axborotlashirishni unda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayon va hodisalarning mohiyatini teran anglashga intiluvchi pozitiv fan sifatida tushuntirishadi. Shu boisdan har bir jarayon yoki hodisadan pozitiv mohiyat izlovchi axborot sivilizatsiyasi ham darajasi bilan o'lchanadi. Zero, hayotdagi barcha jarayonlarni anglash jamiyatni organizm sifatida tushunish uchun ham o'z-o'zini rivojlantiradigan, a'zolarining o'zaro muvozanatini saqlab turish salohiyatini namoyon qiladigan bir butunlik axborot madaniyatining mohiyatini ifoda etadi. Bunday bir butunlik aynan ijtimoiy madaniyatga yondashuv sifatida maydonga keldi.

Tashqi dunyoni idrok qilish jarayonida kishilararo o'zaro munosabat davomidagi axborot almashinuvi o'ziga xos madaniyatning muomala shaklidir. Demak, elektron madaniyat aloqa vositasida kishilararo sotsial ning bosh elementi bo'lgan axborot almashinuvi jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. E.Dyurkgeym axborot madaniyatining ijtimoiy mohiyatiga aniqlik kiritish maqsadida sotsial xatti-harakat tajribasini ajdoddan avlodga o'tkazish deb hisoblagan edi. Bu nazariyaning keyingi rivojiga hissa qo'shgan T. Parsons va N. Smelzerning qarashlari T. Parsons E. Dyurkgeym konsepsiyalarini rivojlantirib, "Ijtimoiy elektron madaniyatlarining tuzilmali differentsiatsiyasi evolutsion xususiyat kasb etishi"ni asoslab berdi [3].

T. Parsonsning muhim xizmati jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy xabarni belgili yetkazishda muammosiga alohida e'tibor qaratgani bo'lib, uning 1937-yilda yaratilgan "Sotsial xatti-harakat strukturasi" kitobida axborot muayyan belgili ma'lumot sifatida qo'lanilgan. O'shandan buyon ijtimoiy elektron madaniyatlar nazariyasi umumiy sotsiologiyaning yangi tarmog'i sifatida rivojlanib bordi. T. Parsons fikricha, "Har qanday mavjudlik elektron madaniyatli faoliyat asosida barqaror ijtimoiy tuzilmani xosil qiladi". Olimning 1951-yilda yaratilgan "Ijtimoiy madaniyatlar" asarida elektron madaniyat bir-birini to'ldiruvchi va biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan aloqa va munosabatlarda ta'riflanadi. Bu tushunchalar inson va jamiyat ijtimoiy hayotining asosiy ikki ustqurmasi, ya'ni muayyan shakl va o'zgaruvchan mazmun birligini ifoda etadi. O'zgaruvchan mazmun komponentlaridan biri ijtimoiy elektron madaniyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro yoki axborot almashinuvi jarayonidir. Shu bois, T. Parsons fikricha, elektron madaniyat uni shakllantiruvchi faktorlarning muloqot doirasiga aylanishi va mustaqil holda rivojlanib borishi mumkin[4].

T.Parsons jamiyatning taraqqiyotini ta'minlashda to'rt elementni, ya'ni biologik organizm, ijtimoiy organizm (elektron madaniyat nuqtayi nazaridan), shaxs va madaniyatning rolini alohida ko'rsatadi[5]. Ularning bir-biri bilan funksional bog'liqlikda harakatlanishi esa jamiyatning majudligini ta'minlaydi. Ushbu to'rt element ichida shaxs hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, shaxs o'z ehtiyojlari, qadriyatli maqsadlari bois individual xulq-atvorni namoyon etadi va shu orqali elektron madaniyatning tartibli harakatlanishiga turtki bo'ladi.

Elektron madaniyatli yondashuv bilish jarayonining universal vositasi sifatida zamonaviy murakkab dinamik jarayonlarni bir butunlikda anglashda tengi yo'q metoddir. 1972-yildayoq faylasuflar tomonidan: "O'rganilayotgan obyektlarga elektron madaniyatli yondashuv hozirgi vaqtda umumilmiy tamoyil maqomiga ega bo'lib bormoqda; barcha maxsus fanlar ularning rivojlanganlik darajasi va ichki ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda elektron madaniyatli yondashuvdan foydalanadi"[6] – deb ta'kidlanganligi ushbu yondashuvning ilm-fan dunyosida ommalashayotganligining belgisi edi.

Tuzilmali-funksionalizmning yevropacha maktabi vakillaridan G. Spenser, B. Malinovskiy, A. Radkliff-Braunlar ijtimoiy elektron madaniyatlarining o'xshash va farqli jihatlari, elektron madaniyatning samarali funksionalligini ta'minlashdagi muammolar, elektron madaniyat doirasida sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zaro aloqa va munosabatlarning xususiyatlari kabi muammolarni alohida o'rganganlar. Xususan, G. Spenser jamiyatni biologik organizmga o'xshatar ekan, uning alohida qismlari (ta'lim, davlat va boshqalar)ni tirik organizmning tana qismlari (yurak, asab elektron madaniyati va boshqalar) bilan solishtiradi va ularning har biri yaxlit bir butunlikni tashkil etishini isbotlaydi. Spenser biologik organizmlar kabi, jamiyatning eng oddiy shakllari ham murakkab bo'laklardan iborat, deb e'tirof etadi[7].

Tahlil va natijalar. B. Malinovskiy va A. R. Radkliff-Braunlar "tuzilma" va "funksiya" tushunchalarining kontent asoslarini yaratadilar. Bunda mualliflar "funksiya" bevosita dinamikani anglatishi, dinamika esa o'z o'rnida elektron madaniyat ekanligini uqtiradilar. Zero, jamiyat yaxlit elektron madaniyat sifatida uning tarkibiy qismlari bir-biri bilan yaxlitlikni xosil qiluvchi aloqadorlikni o'rnatishni talab etadi. Shu tariqa Radkliff-Braun ushbu nazariyani turli jamiyatlar tahlilida ilk bor qo'llagan dastlabki olimlardan biri bo'ldi.

X. Abels axborot madaniyatining tarkibiy elementlarini o'rganar ekan, ma'lumotning elementlarini quyidagicha tavsiflaydi:

- tarkibiy elementlarning tuzilmaviy aloqasi;
- maqsadga yo'naltirilganlik;
- tarkibiy qismlarning yaxlitlikka bo'ysundirilganligi;
- uzoq muddatli barqaror va muvozanatlangan voqe'lik;
- atrof-muhitdagi o'zgaruvchanlik va aloqadorlik kabi

xususiyatlarning yig'indisidir, deb izohlaydi. Darhaqiqat, elektron madaniyat o'zaro aloqadorlikda bo'lgan birliklarning yig'indisi sifatida ularning birgalikda amal qilishdagi mutanosibligini ta'minlaydi.

Demak, ijtimoiy elektron madaniyatlariga oid diskurslar ijtimoiy-gumanitar fanlarning fundamental nazariyalaridan bo'lib, bir tomondan, shaxslar, kichik guruhlar, turli jamoalar o'rtasidagi axborot almashinuvi, aloqalar va munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida qabul qilinsa, ikkinchi tomondan, ularni ilmiy o'rganish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Demak, M. Leske, G. Redlov, G. Shtilerlar ta'biri bilan aytganda: "ijtimoiy elektron madaniyat – bu lar majmuasi"dir[8].

Ushbu yondashuvlar esa o'z o'rnida jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi barcha komponentlar faoliyatini turli darajalarda (makro, mezo, mikro) batafsil tahlil qilish imkonini berdi. Mazkur maktab vakillarining xulosalariga binoan aynan dinamik jarayonlar jamiyat hayotiyiligini ta'minlaydi. Dinamik jarayonlar harakati esa elektron madaniyat orqaligina sodir bo'ladi.

Zamonaviy bosqichda nemis sotsiologi N. Luman ijtimoiy elektron madaniyat tushunchasiga berilgan ta'riflarni yanada takomillashtirdi va ijtimoiy elektron madaniyat umumiy nazariyasi va elektron madaniyatli tahlil metodikasi modernizatsiyasiga hissa qo'shdi. Uning asosiy nazariy fikrlari "Ijtimoiy elektron madaniyatlar: umumiy nazariya" (1984) va "Jamiyatning jamiyati" (1997) kabi ishlarida o'z aksini topdi.

N.Luman ijtimoiy elektron madaniyatning biologik elektron madaniyatlaridan mohiyat e'tiboriga ko'ra farq qilishini alohida qayd etadi. N.Luman jamiyatda o'zaro aloqadorlikda sodir bo'luvchi kommunikatsiya, ya'ni axborot almashinuvi jarayoni elektron madaniyatli tarzda kechishini faqat ijtimoiy elektron madaniyatlar nazariyasi doirasida o'rganish maqsadga muvofiqligini ko'rsatib beradi. Shu tariqa N.Luman jamiyatni o'zini o'zi anglovchi autopoetik elektron madaniyat sifatida talqin qildi. "Autopoesis" atamasini mashhur neyrobiolog olim Xumberto Maturanadan "qarz"ga oladi va ijtimoiy elektron madaniyatlar nazariyasini takomillashtirishda ilk marta qo'llaydi[9]. Uning fikricha, ijtimoiy elektron madaniyatlar nafaqat dinamik jarayon sifatida permanent faoliyat yuritishda davom etadi, balki elektron madaniyatlar parchalanib ham turadi. Bu biologik elektron madaniyatlar o'lim bilan teng hodisadir. Ijtimoiy nuqtayi nazardan esa jamiyat yaxlit elektron madaniyat

hamda shu elektron madaniyat ichidagi boshqa ijtimoiy elektron madaniyatlari sifatida cheklangan bo'lib va uning barbod bo'lish ehtimoli yuqoridir.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, falsafa fanida elektron madaniyat kategoriyasi tahlilining rivojlanishi quyidagi uch bosqichda kechdi.

Birinchi bosqichda jamiyat tabiatshunoslik nuqtayi nazaridan bir xilligi, o'xshashligi yoki hatto biologik organizmga teng ekanligi bilan ajralib turgan. Jamiyat tirik organizm kabi bir-biriga bog'liq va o'zaro aloqador qismlardan tashkil topganligini e'tiborga olish zarur, shunga ko'ra, jamiyatshunoslik fanining vazifasi ushbu o'zaro bog'liqlikni o'rganishdan iborat. Ushbu bosqichda jamiyatshunoslar elektron madaniyat nafaqat yopiq va shuning uchun entropik, ya'ni farqlarning yo'qolishiga moyil, balki ochiq, ya'ni zaif ihotalangan, degan xulosaga kelgan edilar.

Ikkinchi bosqichda "elektron madaniyat" tushunchasi asosan bir-biri bilan o'zaro bog'liq qismlardan tashkil topgan murakkab obyektlarning xatti-harakatlarini aks ettiruvchi abstraksiya sifatida tavsiflandi. Vazifalar qismlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishdan, turli elektron madaniyatlar va kichik elektron madaniyatlarining o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'zgartirildi. Elektron madaniyat nafaqat elementlar va ular

o'rtasidagi aloqalar to'plami, balki favqulodda xususiyatlariga ega elementlar va ular o'rtasidagi aloqalar faol amal qiluvchi hamda yangilanib turuvchi ichki birlikka ega yaxlitlikdir.

Uchinchi bosqichda referent elektron madaniyatlar nazariyasi shakllantirildi. Ushbu nazariyaga muvofiq elektron madaniyat tashqi muhitdan farqlanadi va u o'z chegaralarini mustahkam tutadi. N.Luman fikriga ko'ra, jamiyat o'z-o'zini tiklovchi va o'zini o'zi anglovchi bunday elektron madaniyatning namunasidir[10].

Elektron madaniyatning elementlari xatti-harakatlarga (hodisalarga) bo'linuvchi kommunikatsiyalar bo'lgani uchun, struktura elementlarning o'zaro munosabatlari bo'lishi mumkin emas. Hodisalar bir zumda sodir bo'ladi: ular uzoq vaqtga chozilmaydi. Shuning uchun hodisalarning bir-biriga munosabati tarzida namoyon bo'lgan struktura barqaror emas. O'zini o'zi yaratuvchi elektron madaniyatning tarkibi elektron madaniyatdagi shartli ravishda cheklangan munosabatlardan iborat bo'ladi. Ya'ni struktura elektron madaniyat barqarorligi omili emas, balki uning yangilanishi asosidagi mustahkamlanish omiliga aylanadi. Elektron madaniyatning elementlari doimo o'zgarib turadigan voqealar qatoridan iborat bo'lgani uchun elektron madaniyatning bo'linishi ham doimiy va uzluksiz jarayondir.

ADABIYOTLAR

1. Ахборот маданияти // <https://ru.wikipedia.org/wiki>
2. Теплая Н.А. Принципы проектирования многоуровневой системы формирования информационной культуры и их обоснование // Школа будущего. – 2013. № 3. – С. 125-131
3. Дюркгейм Э.О разделении общественного труда. Метод социологии. М, 1991.-С.14;
4. Парсонс Ташк. Социальные системы. // Вопросы социальной теории. 2008. Том 2. Вып 1(2). – С. 42.
5. Парсонс Т.О структуре социального действия, М.: Академический проект, 2002.-С. 23.
6. Тюхтин В.С. Системные связи правовой действительности: Методология и теория. СПб., 1991. – С.56.
7. Спенсер Г.Основания социологии Пер. с англ. Ч.1-2 СПб., 1899.– С.34.
8. Леске М., Редлов Г., Штилер Г. Почему имеет смысл спорить о понятиях: Пер.с нем. М.,1987.
9. Луман, Н. Теория общества // Н. Луман Теория общества: сборник КАНОНпрессЦ, Кучково поле Пер. с нем., англ. под ред. А.Ф. Филиппова. - М., - 1999. – С. 196
10. Луман, Н. Теория общества //Н. Луман Теория общества: сборник КАНОН пресс, Кучково поле Пер. с нем., англ. под ред. А.Ф. Филиппова. – М.: – 1999. – С. 201.